


TOSHKENT SHAHAR
TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2019-yil yanvar-fevral)

2019-yil yanvar-fevral oyi yakunlariga ko'ra, Toshkent shahrida tashqi savdo aylanmasi 1591,8 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 404,9 ming AQSH dollarga (5,6 % ga kamaydi) va import hajmi 1186,9 ming AQSH dollariga (o'sish sur'ati 7,5 %) yetdi. Tashqi savdo saldosini -782,0 mln AQSH dollarini tashkil qildi.

Toshkent shaharning tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)



Toshkent shahrida so'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi yo'lida sezilarli ishlar olib borilmoqda. 2018 yil mobaynida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan meva-sabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to'lovning bozor mexanizmi joriy qilindi.

Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019-yilning yanvar-fevral oyida Toshkent shahrida tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 58,3 mln AQSH dollariga, tovar va xizmatlar importi hajmi esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 82,4 mln.AQSH dollariga ko'proqdir.

**Toshkent shahrida tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega bo'lgan 20 davlat**


(mln. AQSH dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Rossiya	396,9	78,5	318,9	24,9	97,9
Xitoy	377,1	117,3	259,8	23,7	114,5
Qozog'iston	140,8	22,7	118,1	8,8	98,0
Turkiya	84,5	19,6	64,9	5,3	105,3
Janubiy					
Koreya	51,9	8,0	43,9	3,3	166,3
Afg'oniston	48,9	48,6	0,3	3,1	65,9
Ukraina	33,9	3,1	30,8	2,1	102,2
Hindiston	32,3	1,6	30,7	2,0	124,7
Germaniya	30,0	3,9	26,1	1,9	65,6
Litva	29,6	2,6	27,0	1,9	127,4
Turkmaniston	26,3	3,8	22,5	1,7	6,6 b
Tojikiston	23,7	21,8	1,9	1,5	85,0
Latviya	22,6	1,5	21,1	1,4	66,4
Braziliya	21,0	0,0	21,0	1,3	71,6 b
AQSH	18,3	2,0	16,3	1,1	75,5
Qirg'iziston	17,5	14,0	3,5	1,1	103,5
Eron	15,4	5,7	9,7	1,0	186,6
Italiya	12,5	2,8	9,7	0,8	78,4
Belarusiya	11,9	0,9	11,0	0,8	50,6
Fransiya	11,6	2,2	9,4	0,7	125,6

Toshkent shahrida so‘nggi yillarda tashqi savdo aylanmasida ijobiy tomonga sezilarli o‘zgarish kuzatilmoqda, jumladan Braziliya 2019 yilning yanvar-fevralida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 71,6 barobar o‘sgan, Turkmaniston davlatida 6,6 baroborga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan Belarusiya (49,4 % kamaygan), Afg‘oniston (34,1 % kamaygan), Latviya (33,6 % kamaygan) davlatlar tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan kamaytirgan.

2019-yilning yanvar-fevral oyi yakuni bo‘yicha tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug‘ullanuvchi korxonalar 539 taga yetkazildi.


Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi hajmi
(mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi dinamikasidan keltirilgan ma‘lumotlar ko‘rsatkichlarning qolgan yillarga nisbatan o‘sganligini ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari, 2019-yil yanvar-fevral oyida amalga oshirilgan tashqi savdo hajmi, o‘tgan yillarga nisbatan ko‘payib, 2019-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, 1591,8 mln. AQSH dollarini tashkil qildi, import hajmi, o‘tgan yillarga nisbatan ko‘payib, 2019-yilning yanvar-fevral oyi yakunlariga ko‘ra, 1186,9 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasida oxirgi yillarga qaraydigan bo'lsak importning ulushi jami tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushiga qaraganda biroz yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan 2019 yilning yanvar-fevral xolatiga tashqi savdo aylanmasida import (74,6 %), eksport (25,4%) ni tashkil qilgan.

Tashqi savdo aylanmasida eksport va import ulushi, (% da)




Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-fevral oyida Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 41,4 % ni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,5 % tashkil etdi. Eksportda MDH davlatlarining ulushi 37,5 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,4% ni tashkil qildi. MDH davlatlari orasida Rossiya va Qozog'iston, Ukraina va Tojikiston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanadi

Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa xorijiy davlatlarning hajmi

(mln. AQSH.dollari)


■ MDH davlatlari ■ Boshqa davlatlar



Boshqa xorijiy davlatlarning Toshkent shahri tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-fevral oyida 56,7 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 58,5 % ga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,1 % ga o'sdi.

Tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa xorijiy davlatlarning hajmi dinamikasi

(mln. AQSH.dollari)



Toshkent shahrining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi


ming. AQSH.dollari

Davlat nomi	2018 yil yanvar-fevral				2019 yil yanvar-fevral			
	Tashqi savdo	Eksport	Import	Saldo	Tashqi savdo	Eksport	Import	Saldo
Rossiya	405184,5	68631,3	336553,2	-267921,9	396873,0	78528,9	318344,1	-239815,3
Xitoy	329425,3	121404,8	208020,5	-86615,7	377077,0	117316,3	259760,7	-142444,3
Qozog'iston	143680,0	24226,0	119454,0	-95227,9	140785,2	22714,5	118070,7	-95356,2
Turkiya	80250,4	32381,4	47869,0	-15487,6	84526,6	19635,3	64891,3	-45256,1
Janubiy koreya	31197,3	8279,8	22917,5	-14637,7	51876,4	7994,0	43882,5	-35888,5
Afg'oniston	74074,7	73827,5	247,2	73580,3	48851,8	48608,8	243,0	48365,8
Ukraina	33196,3	9721,7	23474,6	-13752,9	33918,2	3086,7	30831,5	-27744,7
Hindiston	25893,0	2189,1	23703,9	-21514,8	32301,5	1561,5	30740,0	-29178,5
Germaniya	45693,1	2758,8	42934,3	-40175,6	29992,9	3934,7	26058,2	-22123,5
Litva	23241,6	149,1	23092,5	-22943,4	29605,9	2567,5	27038,3	-24470,8
Turkmaniston	3931,3	3431,5	499,9	2931,6	26330,3	3791,1	22539,2	-18748,1
Tojikiston	27905,7	26294,6	1611,1	24683,5	23724,8	21846,9	1877,9	19969,1
Latviya	34078,7	1349,5	32729,3	-31379,8	22632,5	1507,2	21125,3	-19618,1
Braziliya	293,0	1,5	291,5	-290,0	21000,5	0,7	20999,8	-20999,1
AQSH	24228,6	2531,6	21696,9	-19165,3	18282,2	2012,2	16269,9	-14257,7
Qirg'iziston	16872,8	7274,5	9598,3	-2323,8	17463,0	13983,8	3479,3	10504,5


EKSPORT

2019-yil yanvar-fevral oyida eksport hajmi 404,9 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi. Eksport tarkibida xizmatlar 63,3 % ulushga ega bo'lib, 2019 yil yanvar-fevral oyida jami eksportda xizmatlar 256,5 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi
Yanvar-fevral holatiga
(mln. AQSH. dollari)




Eksport tarkibi jamiga nisbatan foizda



2019 yil yanvar-fevral oyida Eksport hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 % kamaydi. Jami eksport tarkibida oziq ovqat mahsulotlari 2,4% ni, qora rangli metallar 3,4 % ni, tashkil qildi.

Toshkent shahrining MDH davlatlar bilan eksport hajmi

(mln. AQSH.dollari)



Toshkent shahrida eksport qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-fevral oyida MDH davlatlarining ulushi jami eksportda 37,5 % ni tashkil etdi hamda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga oshdi. MDH davlatlari orasida yuqori ulushga ega davlatlar Rossiya (51,6%), Tojikiston (14,36%), Qozog'iston (14,93%) lar bo'lib jami MDH davlatlarning 80,89 % ni tashkil qiladi. O'tgan yilga nisbatan MDH davlatlari orasida eksport hajmi sezilarli ko'paytirgan davlatlar Qirg'iziston, Belarus, Rossiya davlatlar.

O'tgan yilga nisbatan MDH davlatlari orasida eksport hajmi sezilarli kamaytirgan davlatlar orasida Armaniston, Ukraina, Qozog'iston, Tojikiston davlatlari bor.

**Toshkent shahridan yanvar-fevral oyida MDH davlatlariga
amalga oshirilgan eksportni tarkibi,
(ming AQSH dollari)**


	mashina va asbob- uskunalar	oziq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari
Ozarbayjon	971,7	46,4	910,2	261,8	86,3	267,9	5,3
Armaniston	-	44,4	-	21,2	-	-	-
Belarus	-	25,2	495,3	346,9	-	1,7	0,2
Qozog'iston	1793,2	733,7	1711,2	14466,0	3444,7	505,2	60,4
Qirg'iziston	2001,5	190,7	2176,6	2521,7	7079,7	13,5	0,2
Moldova	-	52,2	-	33,3	-	-	-
Rossiya	14846,2	1699,3	24955,2	32527,7	1650,9	1115,4	1734,2
Tojikiston	1090,5	98,6	324,0	15465,1	4794,4	72,4	2,0
Turkmaniston	375,5	402,0	79,5	2699,2	218,6	-	16,3
Ukraina	492,1	117,9	720,3	301,9	1442,2	11,9	0,4

MDH davlatlari orasida tovar va xizmatlarning eksport tarkibi xilma xilligi bo'yicha Rossiya, Ozarboyjon, Ukraina, Tojikiston alohida ajralib turadi. Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining eksport hamkori xisoblanadi.

Boshqa xorijiy davlatlari orasida tovar va xizmatlarning eksport hajmi eng yuqori davlatlar orasida jamiga nisbatan Xitoy (51,0%), Afg'oniston (18,9 %), Turkiya (5,4 %) ni tashkil qiladi.

Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan eksport hajmi yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar

(mln. AQSH.dollari)



Boshqa xorijiy davlatlar orasida Toshkent shahrida tovar va xizmatlarning eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan keskin kamaytirgan davlatlar orasida Afg'oniston, Turkiya, Janubiy Koreya davlatlari ham bor. O'tgan yilning mos davriga nisbatan Singapur, BAA, Eron ko'paytirgan Toshkent shahrida tovar va xizmatlarning eksport hajmiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

**Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan
eksport hajmi yuqori ulushga
ega bo'lgan 10 davlat eksportni tarkibi**

(ming. AQSH.dollari)


	mashina va asbob- uskunalar	oziq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari
Xitoy	331,9	319,0	1285,0	114630,4	179,9	-	570,1
Afg'oniston	59,4	4157,8	480,5	17130,1	773,2	-	26007,8
Turkiya	3654,5	59,2	4507,8	4677,0	805,0	4576,2	1355,5
Janubiy Koreya	172,9	33,8	105,8	6152,5	489,2	-	1039,6
Eron	-	12,4	1560,5	1521,7	1290,3	1276,9	0,3
Buyuk britaniya	2,6	-	17,4	3852,6	-	1570,5	0,3
Belgiya	32,0	-	4,1	3822,5	-	-	-
Singapur	591,4	-	-	873,7	-	1318,8	19,5
BAA	-	34,2	-	3038,6	104,0	-	0,4
Germaniya	102,6	318,2	131,9	2881,4	435,5	34,2	30,9

Boshqa xorijiy davlatlar orasida tovar va xizmatlarning eksport tarkibi xilma xilligi bo'yicha Turkiya Germaniya davlatlari alohida ajralib turadi. Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining eksportdagi asosiy hamkorlari xisoblanadi.


IMPORT

2019-yil yanvar-fevral oyida import hajmi 1186,9 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi. Import tarkibida mashina va asbob-uskunalar 32,5 % ulushga ega bo'lib, 2019 yil yanvar-fevral oyida jami importda xizmatlar 385,5 mln. AQSH dollarga teng bo'ldi.

**Tovar va xizmatlar import tarkibi
yanvar-fevral holatiga
(mln. AQSH. dollari)**




Import tarkibi jamiga nisbatan foizda



2019 yil yanvar-fevral oyida Import hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,5 % o'sdi. Jami import tarkibida oziq ovqat mahsulotlari 14,0% ni, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar 18,8 % ni, qora rangli metallar 11,5 % ni, energiya manbaalari va neft mahsulotlari 3,4% ni, tashkil qildi.

Toshkent shahrining MDH davlatlar bilan import hajmi

(mln. AQSH.dollari)



Toshkent shahriga import qiladigan MDH mamlakatlari orasida jamiga nisbatan Rossiya (62,68 %), Qozog'iston (23,25 %), Ukraina (6,07 %) larni tashkil qilib jami MDH mamlakatlarning (92,0 %) ni tashkil qiladi. MDH mamlakatlari orasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan Armaniston, Qirg'iziston, Belarusiya davlatlari kamaytirgan. Toshkent shahriga import qiladigan MDH mamlakatlar orasida o'tgan yilning mos davriga nisbatan Turkmaniston (45b), Ukraina (31,3 %), Tojikiston (16,6 %), ga ko'paytirgan.

**Toshkent shahriga yanvar oyida MDH davlatlariga
amalga oshirilgan import tarkibi,
(ming AQSH dollari)**


	mashina va asbob- uskunalar	oziq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari
Ozarbayjon	-	30,6	-	276,5	441,3	0,4	90,2
Armaniston	-	37,0	-	0,1	82,0	-	-
Belarus	4998,3	2261,7	1670,6	494,7	979,8	265,2	407,5
Qozog`iston	4284,5	52184,9	8332,3	3580,9	4503,4	34944,2	10240,6
Qirg`iziston	603,8	359,3	448,3	421,8	161,4	1419,4	65,2
Moldova	-	45,5	0,2	2,5	120,7	-	-
Rossiya	60629,4	42065,0	79929,7	20370,2	32952,4	76761,4	5636,1
Tojikiston	93,4	17,8	908,1	685,3	73,4	92,2	7,6
Turkmaniston	29,4	28,5	710,2	635,8	310,8	-	20824,5
Ukraina	2961,6	15535,1	4308,8	51,2	7012,7	906,9	55,2

MDH davlatlari orasida tovar va xizmatlarning importi tarkibi xilma xilligi bo'yicha Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya alohida ajralib turadi. Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining import hamkori xisoblanadi. MDH mamlakatlari orasida 2019 yil yanvar-fevral oyi davomida Armaniston Toshkent shahriga ximatlar, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar importini amalga oshirgan.

Boshqa xorijiy davlatlari orasida tovar va xizmatlarning importi hajmi eng yuqori davlatlar orasida jamiga nisbatan Xitoy (38,3 %), Turkiya (9,6 %), Janubiy Koreya (6,5 %) ni tashkil qiladi. Bu davlatlar boshqa xorijiy davlatlari orasida jami tovar va xizmatlar importida 54,4 % ni tashkil qiladi. Birgina Xitoy mamlakati Toshkent shahriga 2019 yilning yanvar-fevral oyida 259,7 mln AQSH dollarlik import qilgan. Bu ko'rsatkich bilan o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,9 % ga o'sganligini ko'rsatadi.

**Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan
import hajmi yuqori ulushga
ega bo'lgan 10 davlat**

(ming. AQSH.dollari)




Boshqa xorijiy davlatlar orasida Toshkent shahrida tovar va xizmatlarning importi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan Germaniya (39,3%), Latviya (35,5 %), keskin kamaytirgan .O'tgan yilning mos davriga nisbatan Braziliya (72b), Eron (2, b) ko'paytirgan Toshkent shahrida tovar va xizmatlarning import hajmiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

**Toshkent shahrining boshqa xorijiy davlatlar bilan
import hajmi yuqori ulushga
ega bo`lgan 10 davlat import tarkibi**

(ming. AQSH.dollari)

	mashina va asbob- uskunalar	oziq-ovqat mahsulotlari	boshqalar	ximatlar	kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	qora va rangli metallar	energiya manbaalari va neft mahsulotlari
Xitoy	172064,3	5176,2	28617,5	2435,3	40961,1	10421,9	84,4
Turkiya	26815,8	1993,0	10356,4	2791,5	14745,6	7716,3	472,7
Janubiy Koreya	26106,3	510,7	1777,0	4804,4	9364,3	268,4	1051,3
Hindiston	4811,8	956,7	630,8	1395,6	22927,4	17,7	-
Litva	19597,1	888,4	1769,2	92,5	3365,0	619,6	706,5
Germaniya	13013,8	696,9	2555,3	1946,3	7058,0	604,7	183,1
Latviya	3928,3	1727,2	574,9	694,2	14069,3	131,3	-
Braziliya	48,6	20887,2	-	0,0	62,8	1,2	-
AQSH	4516,9	313,9	650,7	3894,5	6565,3	325,9	2,8
Eron	2271,1	255,2	991,9	204,1	5928,2	64,4	41,6

Boshqa xorijiy davlatlar orasida tovar va xizmatlarning importi tarkibi xilma xilligi bo'yicha Xitoy, Turkiya, Janubiy Koreya, Litva, Germaniya alohida ajralib turadi. Bu davlatlar diyarli barcha tovar va ximatlar tarkibida Toshkent shahrining importda asosiy hamkori xisoblanadi. Boshqa xorijiy davlatlar orasida 2019 yil yanvar-fevral oyi davomida Braziliya va Latviya davlatlari Toshkent shahriga energiya manbaalari va neft mahsulotlari importini amalga oshirgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi.
Abdurayimov J.J
tel (71)230-88-20(21)